

Jo'rayev Nurmuhammad Nurmatovich
Ya. G'ulomov nomidagi Samarqand
arxeologiya instituti tayanch doktoranti

G'aniyeva Sitora Sadriddinovna
Kogon tuman politexnikumi tarix fani
o'qituvchisi

YOZMA MANBALARDA G'ARBIY SUG'D SHAHARLARINING TASNIFI: TARIXIY TAHLIL

Annotatsiya. Mazkur maqolada G'arbiy Sug'd shaharlarining yozma manbalarda aks etishi va ularning o'rganilish tarixiga bag'ishlangan tadqiqot natijalari yoritilgan. Tadqiqotning asosiy maqsadi — Buxoro vohasidagi shaharlarning shakllanishi, rivojlanishi hamda o'rta asr mualliflari asarlarida qayd etilgan tarixiy-topografik ma'lumotlarni tahlil qilishdir. Maqolada arab, fors va turkiy yozma manbalar, shuningdek, XIX–XX asr rus tadqiqotchilari tomonidan keltirilgan tarixiy ma'lumotlar solishtirma usulda tahlil qilingan.

Tadqiqot davomida "Buxoro", "Romitan", "Poykend", "Varaxsha" kabi shaharlarning yozma manbalarda qayd etilishi, ularning ijtimoiy-siyosiy va madaniy ahamiyatini ifodalovchi dalillar tahlil etilgan. Natijada, Buxoro vohasining ilk o'rta asrlardan boshlab mintaqadagi siyosiy va madaniy markaz sifatida shakllangani, yozma manbalarda esa bu jarayon turli bosqichlarda, mualliflarning ilmiy va mafkuraviy qarashlariga ko'ra aks etgani aniqlangan. Tadqiqot natijalari Buxoro vohasining shahar madaniyati, tarixiy topografiyasi va arxeologik manbalarini kompleks o'rganishda muhim manba sifatida xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: G'arbiy Sug'd, shaharlar, numizmatik ma'lumotlar, Shoir Firdavsiy, Siyovushgird qal'asi, Buxorxudot, qo'rg'oni Romitan, tinch qishloq.

КЛАССИФИКАЦИЯ ПРЕДПОЛАГАЕМЫХ ГОРОДОВ ЗАПАДНЫХ ШТАТОВ В ПИСЬМЕННЫХ ИСТОЧНИКАХ: ИСТОРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ

Аннотация. В данной статье представлены результаты исследования, посвящённого отражению городов Бухарского оазиса в письменных источниках и истории их изучения. Основная цель исследования — проанализировать процесс формирования и развития городов Бухарского оазиса, а также историко-топографические сведения, зафиксированные в трудах средневековых авторов. В статье проведён сравнительный анализ арабских, персидских и тюркских письменных источников, а также исторических данных, приведённых русскими исследователями XIX–XX веков.

В ходе исследования были рассмотрены упоминания таких городов, как "Бухара", "Ромитан", "Пайкенд" и "Варахша", в письменных источниках, а также проанализированы данные, отражающие их социально-политическое и культурное значение. В результате установлено, что с раннего Средневековья Бухарский оазис сформировался как политический и культурный центр региона, а в письменных источниках этот процесс отражался на разных этапах в зависимости от научных и идеологических взглядов авторов. Результаты исследования служат важным источником для комплексного изучения городской культуры, исторической топографии и археологических данных Бухарского оазиса.

Ключевые слова: Западный Согд, города, нумизматические данные, поэт Фирдоуси, крепость Сийовушгирд, Бухара, крепость Ромитан, мирная деревня.

CLASSIFICATION OF WESTERN SOGD CITIES IN WRITTEN SOURCES: HISTORICAL ANALYSIS

Annotation. This article presents the results of a study on the reflection of the cities of Western Sughd in written sources and the history of their study. The main purpose of the study is to analyze the formation, development of cities in the Bukhara oasis, as well as historical and

topographic information recorded in the works of medieval authors. The article analyzes Arabic, Persian and Turkic written sources, as well as historical information cited by Russian researchers of the 19th-20th centuries in a comparative manner.

During the study, the mention of cities such as "Bukhara", "Romitan", "Poykend", "Varakhsha" in written sources, as well as evidence of their socio-political and cultural significance, was analyzed. As a result, it was found that the Bukhara oasis was formed as a political and cultural center in the region from the early Middle Ages, and this process was reflected in written sources at different stages, according to the scientific and ideological views of the authors. The results of the research serve as an important source for a comprehensive study of the urban culture, historical topography and archaeological sources of the Bukhara oasis.

Keywords: Western Sogd, cities, numismatic data, Poet Firdavsi, Siyovushgird fortress, Bukhorkhudot, Romitan fortress, peaceful village.

Buxoro vohasi hududi antik va ilk o'rta asrlarda O'rta Osiyoning madaniy hayotida muhim o'rin tutgan. Bu davrda vohada Poykent, Varaxsha, Qo'rg'oni Romitan, Vardonze, Buxoro shahristoni kabi qator yirik shaharlar qad ko'targan va gullab yashnagan. Buxoro vohasi haqida ilk o'rta asrlarda yozilgan akasiyat qo'lyozmalar VI-VIII asrlarda arablar va boshqa ko'chmanchilar hujumi natijasida yo'q qilingan. Keyingi asrlarda arab va fors tilidagi manbalardan biz qimmatli tarixiy, geografik, iqtisodiy va madaniy ma'lumotlar olishimiz mumkin.

Buxoro toponimi ma'nosi bugungi kunda bir nechta varianda talqin qilinadi. Yozma manbalarda "Buxo" (柔河) atamasi ilk bor, taxminan milodiy 630-yillarda Syuan-Tsuan tomonidan qayd etilgan deb hisoblanadi. Aynan shu nom, so'g'dcha shaklda Varahran V (421–439 yillar) nomidan taqlid qilinib zarb etilgan tangalarda uchraydi. Bu tangalar, ehtimol, milodiy V asrning ikkinchi yarmidan boshlab Buxoro mulkida zarb etilgan. Bundan tashqari, bu nom "Kopchikov likopchasi" deb ataluvchi idishda ham qayd etilgan bo'lib, u paleografik ma'lumotlarga ko'ra VI asr oxiri – VII asr boshlaridan kech bo'lmagan davrga taalluqlidir[12].

Qator olimlarning, xususan XIII asr tarixchisi Juvayniy bergan ma'lumotlarga asoslanib bildirgan fikrlariga ko'ra, bu nom sanskrit tilidagi "vihara" - "budda monastiri" so'ziga borib taqaladi. Biroq, bu borada yana bir fikr bor - u yanada ishonchliroq: unga ko'ra, "Buxoro" toponimi so'g'dcha "buxnrak" — "baxtli joy" degan so'zdan kelib chiqqan bo'lishi mumkin[2].

Buxoroning yana bir qadimiy nomi — Numi, Naumi, Numijkat kabi Xitoy va arab yozma manbalarida qayd etilgan. Tadqiqotchi V.A. Livshits fikricha, bu nom so'g'dcha "Namich" — "mashhur", "shonli" degan so'zdan olingan bo'lishi mumkin.

Buxoroning qadimiy nomi bir qancha mualliflar tomonidan Numidjkat deb berilgan. At-Tabariy va al-Balazuriy asarlarida "Buxoro" atamasi ko'pincha butun vohani anglatuvchi tushuncha sifatida ishlatilgan. Al-Balazuriy asarida esa "Buxoro madinasi" ikki marta tilga olinadi, biroq bu erda so'z Buxoro shahri emas, balki butun vohaning poytaxti sifatida keltirilgan. Xuddi shu ma'noda u Axsikat haqida ham yozadi: "Bu esa uning (ya'ni Farg'onaning) qadimiy poytaxtidir"[6].

Eshiklarning tartibi va nomlari Narshahiyning "Buxoro tarixi", al-Istaxriy va al-Muqaddasiy asarlarida keltirilgan. Ularning deyarli barchasi hozir O. A. Suxareva tomonidan aniq joylashuvi va identifikatsiyasi bilan o'rganilgan.

Buxoro vohasida xristianlik ramzli tangalarning keng tarqalganligi, Markaziy Osiyoning boshqa hech bir hududida bunday holat kuzatilmaganini hisobga olsak, bu erda xristianlik muhim rol o'ynaganini ko'rsatadi. Ma'lumki, Buxoro shahrida xristian ibodatxonasi mavjud bo'lgan, uning o'rnida 713-yilda Qutayba ibn Muslim tomonidan Banu Hanzala masjidi qurilgan[5].

Islomdan avvalgi davr Buxorosining siyosiy tarixi haqidagi yozma manba ma'lumotlari asosan milodiy VII–VIII asrlargacha cheklangan. Uning ilk bosqichlari esa, ko'proq numizmatik (tangachilik) ma'lumotlar asosida belgilanishi mumkin.

Shoir Firdavsiyning "Shohnoma" asariga ko'ra, Buxoro arki — ya'ni Ark mashhur qahramon Siyovush tomonidan qurilgan. U Kaykovusning o'g'li bo'lib, otasining ta'qibidan qochib, Turan podshosi Afrasiyob huzuriga keladi. U erda podshoning qiziga uylanib, Kangdiz

32 nomli qasr va Siyovushgird qal'asini quradi[1]. Keyingi pahlaviy (forsiy) matnlarga ko'ra, bu inshootlar "Baxar" viloyatida joylashgan bo'lgan[12].

Siyovush tomonidan Buxoro hududida qal'a qurilgani va uning sharqiy darvozalar yaqiniga dafn etilgani, o'rta asr muallifi Abu-l-Hasan an-Nishapuri tomonidan aniq qayd etilgan[13]. Tadqiqotchi K. V. Trever fikricha, bu erda tilga olingan "Baxar" viloyati Buxoroga to'g'ri keladi.

Narshaxiyning ma'lumotiga ko'ra, Buxoro shahri turk hukmdori Sheri Kishvar tomonidan asos solingan. U turklar xoqoni Qora Cho'rin tomonidan yuborilgan bo'lib, bu qaror mahalliy dehqonlarning zolim hukmdor Abruyga qarshi yordam so'rab qilgan murojaatiga javoban amalga oshirilgan[10]. Tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, bu voqea milodiy VI asrning 60–80-yillariga to'g'ri keladi.

Ammo shaharning bu qadar kech davrda tashkil topgani haqidagi qarash arxeologik ma'lumotlar bilan tasdiqlanmaydi. Eng qadimgi madaniy qatlamlar Buxoro arki va shahristoni hududidagi stratigrafik qazishmalarda topilgan bo'lib, ular miloddan avvalgi I ming yillikning o'rtalari yoki miloddan avvalgi IV–III asrlarga oid deb taxmin qilinadi. Miloddan avvalgi III asrga oid deb topilgan arkning eng qadimgi qal'a devori ham aniqlangan.

Arxeolog olim R. Veladzening fikricha ehtimol, Buxoro aynan miloddan avvalgi 328-yildagi voqealarda Arrian tomonidan tilga olingan bo'lishi mumkin. Unga ko'ra, Spitamen o'z qo'shini bilan ittifoqchilar izlab Bagi yoki Gabi degan, so'g'diy erlar bilan massaget-skilflar oralig'idagi chegarada joylashgan, zabt etib bo'lmaydigan joyga kelgan. Bu joy Buxoroning o'rniga mos kelishi mumkin, chunki u so'g'diy erlarning eng chekka nuqtasida joylashgan bo'lib, undan keyin saks qabilalarining cho'l-ko'chmanchi hududlari boshlanadi[11].

Ilk o'rta asrlarda Buxoro buxorxudodlar hokimiyati ostida bo'lgan. Buxorxudot (Buxoro va fors, «xudo» — tangri, ega, hokim) - Buxorxudotlar hokimligini idora qilgan hukmdorlar unvoni. Buxorxudot atamasi dastlab "Buxorxudo" ("Buxoro hokimi") shaklida bo'lgan. Buxoroga Islom kirib kelgach (VIII-asr), arablar uni buxorxudot deb o'z tillariga moslab olganlar. Buxorxudodlar milodiy VI-VIII asrlarda Buxoro zaminida hukmronlik qilgan sulola hisoblanib ularning davlati tarkibiga hozirgi Buxoro viloyatining Buxoro, Vobkent, Kogon, Romitan, Jondor va Korako'l tumanlari erlari kirgan. Arablar Buxoroni fath etgandan keyingi dastlabki yillarda hokimiyatni buxorxudotlar bilan birgalikda boshqarganlar. 715-yilda Xuroson noibi Qutayba ibn Muslim o'ldirilgach, buxorxudotlar davlatni bir necha yil davomida mustaqil idora qilganlar. VIII asrning 3-choragida arablar butun Movarounnahrni fath etib, buxorxudotlarni rasman o'z o'rinlarida qoldirgan bo'lsalarda, hokimiyatni amalda to'laligicha o'zlari boshqarganlar. 782-yilda so'nggi buxorxudot Bunyod Muqanna qo'zg'olonini qo'llab-quvvatlagani uchun arablar tomonidan qatl etilib, buxorxudodlar humronligiga barham berilgan.

Buxorxudodlar hududi arxeologik jihatdan mukammal o'rganilmagan. Tarixiy manbalarda, masalan Narshaxiyning "Buxoro tarixi"da keltirilgan ma'lumotlarga qaraganda, Buxorxudodlar davkatida bir qancha mustahkam qal'ali shaharlar bo'lgan, ularda madaniyat, hunarmandchilik, savdo-sotiq taraqqiy etgan.

Birinchi buxorxudot Kono bo'lib o'zining tasviri va uning ostiga "Buxoro hokimi" degan yozuv zarb qilingan kumush tangalar (dirhamlar) chiqargan. Bunday tangalar arxeologik qazishmalar vaqtida ko'plab topilgan. Narshaxiy o'zining "Buxoro tarixi" asarida buxorxudotlardan bir nechasining nomini keltirgan bo'lib, ular orasida Kono va Abruy (Abarzi) degan ismlar ham mavjud[10].

Tarixchi G'. G'oibovning «Arablarining O'rta Osiyoga qilgan ilk yurishlari» nomli asarida esa buxorxudotlar vakillari quyidagicha tartibda bayon qilingan:[7].

1	Bidun	Milodiy ?—673 yillar
2	Xo'tak xotun	Milodiy 673-692 yillar
3	Tug'shoda I	Milodiy 692—724 yillar
4	Tug'shoda II	Milodiy 724—738 yillar
5	Qutayba ibn Tug'shoda	Milodiy 738—753 yillar
6	noma'lum buxorxudot (Tug'shoda III)	Milodiy 753—768 yillar

7	Sukon	Milodiy 768-775 yillar
8	Bunyod	Milodiy 775-782 yillar

Arablarning Buxoroga qilgan dastlabki harbiy yurishlari davriga kelib, ya'ni Xuroson noibi Ubaydalloh ibn Ziyod tomonidan 673–674-yillarda boshlangan va Said ibn Usmon hamda Salm ibn Ziyod (680–683-yillar) davrida davom ettirilgan yurishlar vaqtida, Buxoro vohasida bir nechta mustaqil hokimliklar mavjud bo'lgan: Buxoro (buxarxudotlar sulolasi boshqaruvida), Vardana (fors shahzodasi Shopurning avlodlari - vardanhudotlar tomonidan boshqarilgan), Karmana va savdogarlar shahri bo'lgan Poykend.

X asr Buxoro tarixchisi Abu Bakr Muhammad ibn Ja'far Narshaxiy Buxoroning qadimgi orografiyasi haqida so'z yuritganda, uning qamishzor, to'qay va chakalakzor bilan qoplangan botqoqlik va ko'llardan iborat ekanligi to'g'risida yozadi[10]. Narshaxiyning ma'lumoti hikoyalarga asoslanilgan bo'lsa-da, har holda haqiqatga ancha yaqin.

Ibn Xavqal o'z asarida Buxoro madinasining ettita temir darvozasi bor bo'lganligini yatib o'tgan[3]. Bular Bob al-Madina, Bob Nur, Bob Hufra, Bob al-Hadid, Bob al-Kuxandiz, Bob Bani Asad, bu esa Muxr darvozasidir, va Bob Bani Sa'd nomli darvoza. Kohandizning ikki darvozasi bor, ularning biri ar-Registon deb ataladi, boshqasi jome masjidiga kiragan bo'lib, Bob al-Jome deb ataladi. Sayyoh o'z navbatida shaharda va Ko'handizda oqar suv yo'qligini va aholining ichimlik suvi Samarqanddan oqib keluvchi azim daryodan ekanligini ta'kidlaydi[3].

Yozma manbalar Buxoro zaminida Buxorodanda qadimiyroq shahar mavjud bo'lganligiga guvohlik beradi:

Narshaxiyning "Buxoro tarixi" asarida Romitan katta kohandizga ega mustahkam qishloq sifatida ta'riflanib, Buxorodan qadimiyroq ekanligi aytiladi[10]. Bu makon qadim zamonlardan podshohlarning turar joylari bo'lgan. Keyinchalik Buxoro shahri bunyod bo'lgach hukmdorlar faqatgina qish faslidagina bu erda turadigan bo'lishgan. Narshaxiyning ma'lumotlariga ko'ra Romitanga Afrosiyob asos solgan. Fors afsonalarida aytilishicha Afrosiyob jodugar bo'lib, 2000 yil yashagan. Kuyovi Siyovushni o'ldiradi. Siyovushning o'g'li Kayxusrav otasining qonini talab qilib ko'p qo'shin bilan bu hududlarga kelganda Afrosiyob Romitan qishlog'ini o'ziga hisor qilib turgan. Kayxusrav 2 yil davomida shu hisorni qamal qilib turgan va uning ro'parasidan o'ziga hisor tiklagan. uning nomi Romish. Romish qo'rgo'ni X asrga qadar obod bo'lib turganligini Narshaxiy tasdiqlaydi[10].

Al-Istaxriy kanalga tutashgan qishloq sifatida Ramitanani tilga oladi. Al-Muqaddasiy Ariamithan qishlog'i Buxorodan ko'ra qadimiyroq bo'lib, buxorxudodlar tasarrufida bo'lgan deb yozadi. Romitan toponimi turli xil shakllarda tarjima qilingan[4].

Ramitan va Ariamitan toponimlarini Markvart ikki qismga ajratgan: medan - "qishloq" yoki "joy" deb tarjima qilgan; va "arya" - eroniy etnonim bo'lib, "aryei joyi" degan ma'noni anglatadi. Toponimning ikkinchi qismi (medan)ga mos ravishda, Fryen "Ramithana" ning birinchi qismini forscha ram (qo'chqor) bilan tarjima qilishni afzal ko'rgan, bu esa "baxtli" degan ma'noni anglatadi. Lurje Fryenning taklifini qo'llab-quvvatlab, uchta mumkin bo'lgan o'qishlarni taklif qilgan: "tinch qishloq", "tinchlik xudosi uchun bag'ishlangan qishloq" va "o'ying 21-kunidagi bozor qishlog'i". Isxoqova Ramitan toponimini boshqa variantlar bilan birga "rah" ya'ni "yo'l" va "medan" ya'ni "madaniy joy" yoki "maqbara yo'li" deb o'qigan. Adilov va Babayev (2011) esa ikkita eron tilidagi so'zlar orqali: rakh va methan ni "yo'ldagi yashash joyi" deb tarjima qilgan. Romitan shuningdek, kelin sifatida yuborilgan Xitoy malikasi uchun pagoda (saroy yoki ibodatxona) o'rnatilgan joy edi degan kabi fikrlarni aytib o'tgan.

O'rta asrlarga oid ba'zi manbalarda Varaxsha nomi o'rnida Rajfandun atamasi qo'llanilgan. U Buxoro shahridan qadimiroq bo'lgan. O'n ikki ariq orqali su'gorilgan. Narshaxiy Varaxshani qishloq turkumiga kiritgan[10].

Qadimda Poykend Buxoro vohasining siyosiy va iqtisodiy hayotidagi muhim markazlardan biri bo'lgan. U haqidagi ma'lumotlar turli arab va fors tilidagi geograflarda saqlanib qolgan. Poykend tarixi Muhammad Narshaxiyning "Buxoro tarixi" asarida bayon etilgan. Shuningdek, bu shahar haqidagi ayrim ma'lumotlar xitoyning o'rta asrlarga oid yilliklarida ham

34 uchraydi. Ushbu ma'lumotlardan V. V. Bartold, I. Markvart, V. Tomashek kabi olimlar o'z ilmiy asarlarida keng foydalanlar.

1913-yilgi safar hisobotiga Zimin o'rta asrlardagi arab geograflarining Poykend haqidagi ma'lumotlarini to'plab ilova qilgan. Shuningdek, I.N.Odintsov ismli telegrafchi tomonidan Poykend xarobalaridan yillar davomida yig'ilgan tangalar Ziminga tahlil qilish uchun topshirilgan[8].

Shunga qaramay, mavjud yozma manbalar to'plami So'g'dning eng g'arbiy shaharlaridan biri bo'lgan Poykendning asosiy taraqqiyot bosqichlari haqida etarlicha to'liq tasavvur hosil qilish imkonini bermaydi. Shu sababdan Poykendning arxeologik tadqiqotlariga katta qiziqish mavjud bo'lib, bu tadqiqotlar XIX asr oxirlaridayoq boshlangan edi.

Xulosa qiladigan bo'lsak, VIII asr boshlarida Buxoroga islom dini kirib kelishi bilan u sharif shaharga – islom olamining mashhur manzillaridan biriga aylandi va Qubbat ul islom yani Islom dining gumbazi hamda Buxoroyi Sharif deb atala boshlaydi. Arablar fathi Markaziy Osiyo, jumladan, Buxoro tarixida ham burilish davri bo'ldi desak adashmagan bo'lamiz. Islom dini mintaqa hayotiga kirib keldi va bu erda mustahkam ildiz otdi. Hozirgi kunda ham Buxoro Islom dinini yirik markazlaridan biri bo'lib kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Firdavsiy. Shohnoma. Tarjimon: E. Samandar. — Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1990.
2. Frye Richard N. Bukhara In Pre-Isfamic Times//Encyciopaedia Iranica.
3. Ibn Havqal. Kitob surat al-arz (Yerning surati kitobi. Toshkent: 2011.
4. Rante R. Oasis Of Bukhara: The Archaeology Of A Central Asian City. Leiden; Boston: Brill, 2019.
5. Бартольд В. В. Туркестан В Эпоху Монгольского Завоевания//Соч. Т. I. М. Л., 1963.
6. Беленицкий А. М., Бентович И. Б., Большаков О. Г. Средневековый город Средней Азии. — Л.: Наука, Ленинградское отделение, 1973.
7. Гоибов. Ф “Арабларнинг Ўрта Осиёгакилган Илк Юришлари” Душанба, 1989.
8. Зимин В. Н. Раскопки в Пойкенде весной и летом 1914 года Известия Императорской Археологической Комиссии. Петроград, 1915. Вып. 58.
9. История Узбекистана. Т. I. Ч. I. Ташкент, 1955.
10. Наршахи, История Бухары, Ташкент 2011
11. Ртвеладзе Э. В. Историческая география Средней Азии. — Ташкент: Фан, 1997.
12. Ртвеладзе. Э. В. К Истории Домусульманской Бухары
13. Ртвладзе Э. В. Легенды Об Основании Среднеазиатских Городов И Археологическая Денствтельность//Культура Юга Узбекистана В Древности И Средневековье. Ташкент. 1987.